

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LAQABLARNING MADANIYATLARARO
MULOQOTDAGI TUTGAN O'RNI**

Xusinova Shahodat Xusin qizi

Teacher of the Department of English and literature

Urgench State University, Urgench, Uzbekistan

E-mail:xusinovashahodat@gmail.com

Abstract

The article demonstrates the representation of ‘nicknames’ in the English and Uzbek languages. Linguoculturological aspects of nicknames are analyzed in the Uzbek language.

Keywords: nicknames, linguoculturological aspect, onomastics, dialects, imitation, stereotypes.

Аннотация: Мақолада ўзбек ва инглиз тилида ‘лақаб’ тушунчасининг ифодаланиши акс етган. Лақаб атамасининг лингвокултурологик хусусиятлари иккала тилда таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: лингвокултурологик жиҳат, етакчи ғоя, ономастика ,диалект, ўхшатиш, стереотиплар.

Аннотация: В статье описывается понятие «прозвище» в узбекском и английском языке. Анализируются лингвокультурологические особенности прозвищного термина в обоих языках.

Ключевые слова: лингвокультурологический аспект, ведущая мысль, ономастика, диалект, аналогия, стереотипы.

Globallashuvning jadal sur'atlari natijasida va millatlar o'rtasidagi turli aloqalardagi sezilarli o'zgarishlar o'z –o'zidan ingliz tilini o'rganishni qay darajada muhimligini yana bir bor isbotladi. Bugungi kunda tilshunoslikning deyarli barcha sohalari chuqur o'rganilmoqda. Shu jumladan nomshunoslik nafaqat zamonaviy tilshunoslik balki lingvokulturologiyaning ham alohida dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot mavzusining ahamiyati bir qancha omillar bilan belgilanadi shu jumladan : til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosiga tilshunoslarning qiziqishi ortishi; onomastik birliklarining tilning ajramas qismi sifatida o'rganish zarurati. Ushbu maqolada amerika va ingliz jamoat arboblarining laqablari va ularning qiziqarli tasnifi, turlari , ijobjiy va salbiy ma'nolarini tavsiflashdan iboratdir. Mazkur mavzuni o'rganishda yetakchi yondashuv ko'p tarmoqli hisoblanib , u sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik, etnografiya va boshqalar kabi fanlardan foydalanishni talab

qiladi. Ushbu maqolada public –ya’ni ommaviy laqablarining semantik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan lingvistik va madaniy tadqiqotlar natijalari keltiriladi. Laqablar eng qadimiy antroponimik birliklardan biri bo‘lib, o‘ziga xos ism va familiyalarning asosiy manbayi hisoblanadi.

Adabiyotlar taxlili sifatida ko’plab ingliz va amerika tilshunoslari tamonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqola zamonaviy ingliz va amerika jamiyatlarining kontseptual sohalaridagi asosiy belgilar sifatida ommaviy laqablarining semantik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan lingvistik va madaniy tadqiqotlar natijalarini taqdim etadi. Tilshunoslikda laqablarni o’rganish bo'yicha aniq tajribalar mavjud bo'lib, ingliz onomastikasida T.V Busse, R. Frank, R. Plank (1964), S. Elsdon (1967), B. Jekson (1967), P. Lesli (1990), J.K. Skipper (1990), V. Klerk va B. Bosh (2000), D. Boersema (2002), G. Maddalena (2004), K. Foks 2004 kabi olimlarning bir qancha asarlari mavjud. Ammo hozirga qadar laqablar doirasi haqida munozarali va muommoli savollar juda ko’p. Ayniqsa, "laqab" "ism" "taxallus" atamalarining qamrovi kengligi sababli tilshunoslikning va zamonaviy lingvokulturologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri bo’lganligi sababli nafaqat ingliz tilshunoslari balki o’zbek tilshunoslari ham turli xil mazmundagi ilmiy izlanishlarni olib bormoqda.

Qisqacha metodologiasiga to’xtalib o’tsak ushbu maqolani yoritishda qiyosiy taqqoslash va tavsiflash usullaridan foydalandik. Shuningdek, ingliz , amerika va o’zbek tillarida mavjud bo’lgan laqablarining leksik ma’nolarini qiyoslab o’tildi. Joriy tadqiqot onomastika tilshunoslikning muhim qismi hisoblanib , asosan lingvokulturologik jihatlarini chuqurroq o’rganishga qaratilgan. Sifatlovchi metod usuli o’z o’rnida tadqiqotning ma’lumot to’plash bosqichida juda samarali yordam berdi.

Natija va taxlillar sifatida tana a’zolari inson anatomiyaga va tuzilishiga asoslanib yuz qismida joylashgan lab, bosh , burun, ko’z va uning shakli , soch kabilar insonlarga laqab ko’rinishidagi nomlarni qo’yilishiga sabab bo’lgan. Kundalik hayotimizda o’zaro madaniy aloqa qilishda ko’plab laqablar xalq orasida qotgan birikma ya’ni steriotipga aylangan. Quyidagi keltiriladigan nomlar xalqlarga va turli xil millat va elat vakillariga berilib asrlar davomida og’zaki tarzda o’tib kelgan. Masalan:kelib chiqishi kariblik bo’lgan amerikalik insonlarga nisbatan xabash, negr, yoki do’rdoq lab deb nomlanganlar. Shuningdek, xitoyliklarga nisbatan qisiq ko’zlar yoki yahudiylarni bo’lsa qirg’iy burun deya nom berishgan.

Nomshunos olimlardan bo’lgan A.B.Dolya ta’kidlashida laqablar klassifikatsiyalashda albatta xalqlarning etnik kelib chiqishiga e’tibr berish kerak deb hisoblagan va shunga asosan bir qancha misollar keltirib o’tgan:

- o’xshashlik yani metafora va metonimiya asosida qo’llanilgan qismlar ya’ni tashqi belgi yoki xarakter xusisyat bog’liqligi : nigger- negr (qora tanli), narrow-eyed(qisiq ko’z), crest, yellow-belly, slant-eye, (Xitoylik), eagle-beak (Yahudiy);

- ma'lum bir milliy-madaniy xususiyatlar orqali ma'noga egalik: kiltie (kelt Shotladiya), wooden-shoe-yo'goch shippak (Daniya).

Bundan tashqari yan bir qiziqarli jihatlardan biribu gastronomik laqablar ya'ni oziq ovqat mahsulotlari bilan bog'liq etnik laqablar. Bunda asosan ma'lum bir xalq vakillarini mashhur o'ziq -ovqat yoki milliy taomlari orqali shu xalq vakillarini nazarda tutiladi. Taom nomlari yordamida pasta- italiyanlarga nisbatan, sausage-maker –sosiska tayyorlovchi, frog-eater – qurbaqa istemolchilar (fransuzlar), and potato –eater- kartoshka deb bo'lsa (irlandlar), herring snapper (norveg va shved). Yuqorida keltirilib o'tilgan qarashlardan tashqari A.B.Dolya nazariyasiga ko'ra laqablar geosiyosatning ta'siri natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Shu jihatdan aytishimiz lozimki etnik steriotiplar asosan ma'lum bir millatva elatlarning tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyati, milliy taomlari va kundalik turmush tarzi bevosita laqablarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Xulosa sifatida zamonaviy tilshunoslikda etnik laqablar tushunchasi nafaqat madaniyatlararo muloqatda balki insonlarni tez va oson topishda muhim vazifani bajaradi. Ushbu maqolaning materiallari lingvomadaniy til aspektlarini o'rganishda, shuningdek, ingliz tilidagi laqablarning o'rni haqidagi zamonaviy munozaralar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ernst Begmatov . O'zbek tili antroponomikasi. Toshkent. 1965 46-bet
2. Propin G. О некоторых особенностях собственных личных имен русском языке // Учение эзаписки Иркутского гос.пед.инст. Вмп 4. Иркутск, 1961;
3. Dolya A. B. Ethnic slurs in the English and Russian languages: motivational aspect. 2016, vol. 1, no. 1, pp. 214–224.
4. Krysin L. P. Ethno-stereotypes in modern linguistic consciousness: formulating the problem. Moscow, OLMA-PRESS Publ., 2005, pp. 450–455.
5. Krysin L. P. Offensive ethnonyms: the problem of lexicographic representation 2015, no. 1 (4), pp. 46–56.
6. Krysin L. P. Human being as an object of evaluation in Russian oral speech 2018, no. 3 (34), pp. 9–33.
7. Panin V. V. Means of expressing ethnic stereotypes in English. 2005, no. 15, pp. 208–212.